

Depozit sertifikatlar

Bankning Depozit sertifikati — bankka qo'yilgan depozit summasini hamda o'rnatilgan muddat tugagandan so'ng depozit summasi va sertifikatda ko'rsatilgan foizlarning sertifikat egasiga to'lanishi huquqini tasdiqlovchi qimmatli qog'ozdir. Depozit sertifikat bo'yicha foizlar har oyning 24 sanasida to'lanadi. Depozit sertifikat muddatidan oldin ham to'lanishi mumkin. Bunda, muddatidan avval to'lovni talab qilingan sertifikat bo'yicha to'lanadigan depozit summasi va foizlari depozit sertifikat chiqarish shartlariga ko'ra, sertifikat bankka taqdim etilgandan so'ng amalga oshiriladi. Bank o'z mijozlariga pul mablag'larini bankning daromadli qimmatli qogozlariga — depozit sertifikatlarga joylashtirishni taklif etadi.

- Amal qilish muddati 335 kun — yillik 13,5%
- Amal qilish muddati 365 kun — yillik 14%
- Amal qilish muddati 730 kun — yillik 14,5%
- Amal qilish muddati 1095 kun — yillik 15%

Depozit sertifikatlarning afzalliklari:

- Mablag' qo'yilgan muddat davomida o'zgarmaydigan, aniq belgilangan foyda (procent) stavkasi;
- Huquqlarning boshqa yuridik shaxslarga berish imkoniyati;
- Sertifikat egasi bevosita bankdan yoki boshqa banklardan kredit ajratilishida sertifikatlardan garov ta'minoti sifatida foydalanish;

Batafsil ma'lumot olish uchun bankning Qimmatli qog'ozlar bo'limiga murojaat etishingiz mumkin.

Ma'lumot uchun telefon: 150-76-90.

05.06.2018 y.